



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20757520>

Aksiologik yondashuv asosida milliy musiqiy merosdan foydalanishning pedagogik asoslari

Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna –

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: nigoramansurova19@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-7898-1684>

Annotatsiya. Bugungi kunda bo'lajak kadrlarni tayyorlashda, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvdan foydalanish dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarini keng joriy etish, aksiologik yondashuv asosida talabalarning milliy musiqiy merosni asrab avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmqoda. Shuningdek, talabalarning bo'lajak kadr sifatida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslik sifatida aksiologik yondashuvdan foydalanishning imkoniyatlari, pedagogik asoslari va ijtimoiy zaruratini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: milliy musiqa, meros, qadriyatlar, ustoz-shogird, maqom san'ati, ijrochilik an'analari.

Роль педагога в проведении уроков музыкальной культуры

Аннотация. В данной статье рассматриваются специальные знания учителя, высокие профессиональные навыки, общая культура, идейно-нравственные качества, решающие экономические и социальные задачи, а также комплексный системный подход учителя, активного в организации воспитательной работы. Обсуждаются пути внедрения научно обоснованных методов и инструментов.

Ключевые слова: образование, профессиональное, компетентность, гармония, принципиальность, эстетическое, знание, творческое, мышление, современное, техническое, педагогическое, психологическое.

The Role of the Teacher in Conducting Music Culture Lessons

Annotation. This article examines the special knowledge of the teacher, high professional skills, general culture, ideological and moral qualities that solve economic and social problems, as well as the integrated systemic approach of the teacher, active in organizing educational work. The ways of introducing scientifically based methods and tools are discussed.

Keywords: education, professional, competence, harmony, integrity, aesthetic, knowledge, creative, thinking, modern, technical, pedagogical, psychological.

KIRISH

Mazkur zamonaviy musiqa ta'limida aksiologik yondashuvdan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi, imkoniyatlari va zaruratini yoritish maqsad qilingan. Shu ma'noda aksiologik yondashuvning mazmuni, tariflanishi va pedagogik jarayonda qo'llanish urni va usullarini ko'rib chiqish talab etiladi.

Jahonda musiqa ta'limini nazariy va amaliy bilimlar bilan o'zaro aloqadorligi, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, ta'limning zamonaviy tizimini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, ilmiy faoliyatga aksiologik munosabatlarni qaror toptirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy sharoitda musiqani pedagogik nuqtai-nazardan aksiologik yondashuv asosida o'rganilishi voqelikni atroflicha idrok etish, o'tmishda musiqa sohasida faoliyat ko'rsatgan mutaxassislarning boy tajribasi, musiqiy asarlari, musiqiy risolalari, cholg'u sozlari ijodkorligi va musiqaning psixologik hamdapedagogik ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati, didaktik tuzilmalarini tizimlashtirish imkonini beradi. Shu bois ham talabalarida milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish, bu asosida milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish, qadriyatli ong asosida musiqa madaniyatini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Buning uchun iesa, eng avvalo jamiyatda musiqiy madaniyatni shakllantirish, dunyoqarashni rivojlantirish talab etiladi. Mamlakatimizda ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy musiqiy merosiga qaratilgan yuksak e'tibor natijasida yoshlarga Buxoro musiqa merosi va uning etuk namoyondalari hayoti va ijodiy faoliyatini o'rgatish, musiqiy ta'lim samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Musiqa ta'limi fani oldida oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zarurati mavjud.


Musiqiy ta'lim tizimida aksiologik yondashuv o'ziga xos muammo bo'lib, uni amalga oshirish va leksik tarjimai hamda musiqiy ta'lim tizimiga tadbiq qilishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslarini tahlil etish bugungi kunning dolzarb muammosidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«Aksiologiya» yunoncha «axio» – «qadriyat», «logos» – «fan, ta'limot» degan ma'nolarni bildirib, «Qadriyatshunoslik, qadriyatlar haqidagi fan»[1,121]. hisoblanadi. Mazkur atama dastlab XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan nemis qadriyatshunos olimi Evon Gertman va fransuz olimi Paul Lapi tomonidan fanga olib kirilgan[2,26]. Aksiologiya qadriyatlarining o'ziga xos me'yoriy tizimini tashkil etuvchi, shaxs va jamiyat uchun qadrlil bo'lgan ehtiyojlarni o'zida mujassamlashtiruvchi majmuadir.

«Aksiologiya»ni qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan to'g'ri qadriyatshunoslik deb atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar bo'lgani kabi qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G'arbda bu atama grekcha «axio» (qadriyat) va «logos» (fan, ta'limot) tushunchalariga asoslanadi [1,3]. Xususan, u har bir shaxs uchun ahamiyatli va jamiyat tomonidan e'tiborli bo'lgan barcha qadrlil narsalarni o'z ichiga oladi. Qadriyatlar falsafiy tushuncha sifatida moddiy va ma'naviy dunyo bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi.

Qadriyat qadr-qimmat ma'nosini anglatib, u inson uchun qadrlil bo'lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuasidir. Mazkur termin voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy-madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha ma'nosini anglatadi. (1-rasmga qarang.)



1-rasm. Qadriyatlar shajarasi

Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qiymatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllarini, narsalar, voqea-hodisalar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi[3,3]. Demak, u ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar majmui sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar harakatini tartibga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi. Qadriyatlar faqat o'tmish uchun qadrlil bo'lmasdan, balki hozirda ham, kelajak taraqqiyotida ham qadrlil bo'lib, ular jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir qiladi hamda kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy merosimizdir.

Aksiologiya haqiqat, yaxshilik va go'zallik qadriyatlari bilan shug'ullanadigan fan[1,4]. Aksiologik tushunchalar o'zida xalqimizga xos eng nodir, eng noyob fazilatlarini mujassamlashtirgan. Bu fazilatlar quyidagi tushunchalarda namoyon bo'lgan.

Musiqqa merosiga aksiologik yondashuv ajdodlarimiz, hozirgi kundagi xalqimiz va kelajak avlodlarimizning madaniy taraqqiyoti uchun qadrlil bo'lgan, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlar majmuasiga bo'lgan ijobiy munosabat hisoblanadi. Bular, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlar bo'lib, u xalqimizning, xususan allomalarimizning siyosiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy, badiiy-diniy, huquqiy hamda estetik qarashlarini o'zida ifoda etadi. Chunki qadriyatlar, asosan, inson uchun ahamiyatli bo'lgan ikki muhim jihatni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar bo'lib, unga ajdodlar tomonidan avlodlarga qoldirilgan moddiy meroslar kiradi. Xususan, bunga ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan uy-joylar, saroylar, qimmatbaho ashyolar, qurol-yarog'lar, o'q-yoylar, zambaraklar, turli ko'zalar, quvurlar, laganlar va boshqa kasb-kor anjomlari, ularning mehnat namunalari va hokazolarni kiritish mumkin. Bu qadriyatlarni asrab qolish kishilar aqliy faoliyatining rivojlanganligi, tejamkorligi, hisob-kitob malakalarini qay darajada shakllanganligiga bog'liq.


2. Ma'naviy, aqliy va axloqiy qadriyatlarga avloddan avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, diniy marosimlar, axloqiy udumlar, bayram tantanalari va turli xil marosimlar, shuningdek, allomalar, shoirlar, san'at namoyandalari tomonidan yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar hamda san'at va madaniyat namunalari singari nomoddiy meroslar kiradi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi kitobi «Avesto»da diniy-falsafiy merosimiz hamda umuminsoniy qadriyatlar o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu kitobda kuylash uchun moslangan 500 ga

yaqin she'riy matnlar berilgan bo'lib, o'tmishdagi ajdodlarimiz bu qo'shiqlarni turli marosimlarda kuylaganlar. Qo'shiqlarda insonlarning ma'naviy va amaliy faoliyatlari uchun g'oyatda zarur bo'lgan fazilatlar aks ettirilgan. Xalqimiz tomonidan og'izdan-og'izga o'tib kelgan ertaklar, masallar, matallar, dostonlar hamda an'anaviy musiqiy merosimiz bo'lgan "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari", "Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari" kabi barhayot san'atimiz namunalari ham xalqimizning ma'naviy, musiqiy merosi hisoblanadi. Pedagog olimlar qadriyatlar tarkibiga pedagogik qadriyatlarni ham kiritadilar. Ular yosh avlodni shakllantirishda inson va uning qadr-qimmatini, bilim olishi, tarbiyasi va bu borada pedagogik qarashlar, pedagogik faoliyatni belgilaydigan tushunchalar tizimidan iborat deb qaraydilar[4, 496]. V.A.Slastenin ta'limotida esa pedagogik aksiologiya asosida inson hayotining qadriyatlari, ta'lim va tarbiya, pedagogik faoliyat va yaxlit ta'limni tushunish va qaror toptirish yotadi, deydi. U «aksiologiya (qadriyatlar falsafasi to'g'risidagi falsafiy ta'limot) ta'lim falsafasining asosi va hozirgi davr pedagogikasining metodologiyasi» deb qaraydi[5, 65].

Pedagogik qadriyatlarni amalga oshirish eng avvalo ma'lum aksiologik yondashuvdan qutiladigan maqsad, g'oyaning qay darajada puxta va aniq bo'lishini, uning kishilik jamiyatiga keltiradigan foydasi bo'lishini taqozo etadi. Musiqa ta'limi jarayonida aksiologik yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra voqelikni atroflicha o'rganish hamda chuqur idrok etishda muhim o'rin tutadi. Xususan, musiqiy merosimizga, musiqiy qadriyatlarimizga aksiologik yondashuvdan kutiladigan maqsad - o'tmishda musiqa sohasida faoliyat ko'rsatgan mutaxassislarimizning boy tajribasi, ijod mahsuli bo'lgan musiqiy asarlarni, musiqiy risolalar, cholg'u sozlari ijodkorligi va musiqaning psixologik va pedagogik ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati, didaktik tuzilmalari haqidagi fikrlariga hurmat ko'rsatish, ularni asrab-avaylash, qimmatini bilish, sinchiklab o'rganishdan iborat. Musiqiy merosga ijodkorlik bilan yondashish, uning boy an'analari davom ettirish, yangilash va uning boy an'analari davom ettirish va kelajak avlodga etkazish muhim vazifadir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Buxoro boy musiqa madaniyati tarixiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Buxoroda tug'ilib, umrining salmoqli qismini shu hududda o'tkazgan va ijodiy faoliyat olib borgan mashhur musiqa namoyandalari ko'pchilikni tashkil etadi. Ular ijodini alohida o'rganish va faoliyatiga aksiologik yondashish yosh avlod tarbiyasida ham salmoqli o'rin tutadi. Abu Ali ibn Sinoning musiqa haqidagi risolalari, Buxoroda faoliyat ko'rsatgan mashhur hofiz, shoir Abu Abdullo Ro'dakiy, «Shashmaqom»ning buyuk namoyandalari, mashhur hofiz va sozandalar Ota Jalol Nosirov va boshqalar ijodini sinchiklab o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sobiq sho'ro tuzumida yashab ijod etgan musiqa san'ati va madaniyatining betakror namoyandalari Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutal Burxonov, Fayzulla Karomatov, Botir Umidjonov va ularning izdoshlari Mustafu Bafoev, Rustam Abdullaev, mohir cholg'uchilar tanburchi Ma'rufjon Toshpo'latov, Moshe Boboxonov, Sulaymon Toxanov va boshqalar ijodiga aksiologik yondashuv Buxoro hududi san'at darg'alarining o'zbek musiqasi rivojiga qo'shgan hissasini yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi. Bu ijodkorlarning musiqiy merosi o'z hududi, o'z Vatani, o'z xalqi uchun qanday xizmat qilish kerakligini namoyish etuvchi muhim vositadir. Shu o'rinda musiqiy qadriyatlarning pedagogik vosita ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Cholg'u ijrochiligi, hofizlik san'atini namoyish etish ham yosh avlodni tarbiyalashning o'ziga xos ma'naviy qurolibo'lib, uning pedagogik jihatlari – ta'lim va tarbiyadagi ahamiyatiga alohida e'tiborni qaratish muhimdir.

Ayniqsa, Buxoro hududining o'ziga xos musiqiy folklori mavjud bo'lib, u asosan xalq orasida keng tarqalgan «Buxorcha» ashula va raqs turkumi, «Mavrigi» taronalari bilan mashhurdir. Bu san'at turlarining har biri betakror hamda qator asarlarni o'zida mujassamlashtirish xususiyatiga ham ega bo'lgan turkumlardan tashkil topgan. Ular Buxoro xalqining urf-odatlari, to'y-tantalari va boshqa marosimlarida kuylanib kelinadi. Shu jihati bilan ham u betakror musiqa merosidir.

Qadriyatlarning muhim pedagogik jihatlaridan yana biri – o‘tmish musiqa merosiga munosabat bildirishdir. Xalq an‘analarining xalqchilligi, uning el-yurtning kundalik hayotiga chuqur singib ketganligi va bu qadriyatlarsiz tassavvur qilib bo‘lmasligi hamda unga katta hurmat hamda ehtirom bilan munosabatda bo‘lish yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Buxoro hududi san‘ati va san‘atkorlariga bildiradigan munosabat haqida keng ma‘lumotga ega bo‘lgan har bir talaba, musiqa mutaxassisi o‘zi yashab, unib-o‘sgan hududini ko‘z oldiga keltiradi va u o‘z hududidan chiqqan mashhur insonlarning hayoti va faoliyati bilan qiziq boshlaydi. Demak, Buxoro san‘ati va madaniyati namoyandalariga nisbatan bo‘layotgan aksiologik munosabat bu birgina hududga taalluqli bo‘lmay, u barcha hududlardan kelgan talabalar uchun ham muhim ahamiyatga ega. (2-rasmga qarang)



2-rasm. Aksiologik tushunchalar.

Xalqimiz yuksak badiiy didga ega bo‘lganligi uchun ham har bir narsani oltin bahosida qabul qilavermaydi. Shu o‘rinda qadriyatlarning sifat jihati haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Buxoro san‘atining gultoji bo‘lgan «Shashmaqom»ning sifati haqida so‘z yuritishning o‘zi ham xalqning didi qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadigan mezon hisoblanadi. Xalqimizning mashhur allomalari, bastakorlari, sozanda va xonandalari, xassos cholg‘uchilari – musiqa san‘ati namoyandalaridir. Shu o‘rinda Mutal Burxonovning A.Oripov she‘riga bastalagan «O‘zbekiston Davlat madhiyasi»ni misol keltirish mumkin. Madhiyaning matni vamusiqasini nafaqat o‘zbekistonliklar, balki hozirgi kunda butun dunyo xalqlari ham eshitib, uning milliy ruh bilan sug‘orilganligini e‘tirof etishmoqda.

Qadriyatlarga pedagogik aksiologiya nuqtai nazaridan yondashar ekanmiz, musiqiy qadriyatlar ham juda katta didaktik va tarbiyaviy bilim ekanligini e‘tirof etgan holda qadimiy sarchashmalar bilan bir qatorda Abu Nasr Forobiy tomonidan yaratilgan «Katta

musiqa kitobi», Ibn Sinoning «Kitob ush-shifo» asarida bayon etilgan fikrlar musiqaning inson psixologiyasiga ta'siri haqidagi qarashlarni qunt bilan o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Abdurahmon Jomiyning «Risolai musiqiy» [7,358] ya'ni musiqa haqidagi risolasida musiqaning didaktik jihatlari yoritilganligi bilan ahamiyatlidir. Buxorolik bastakorlar yaratgan bebaho asarlarni o'rganish talabdan juda katta iqtidor va qobiliyat talab qiladi. Ijrochilik sohasidagi Buxorolik ustozlarning o'ziga xos maktabi ham bebaho ma'naviy xazinadir. Bo'lajak musiqa mutaxassislari Buxoro musiqa namoyandalari ijodiga aksiologik yondashish orqali umumiy ta'lim maktablarida o'tiladigan «Musiqa madaniyati» darslarining sifati va samaradorligiga ham erishishlari mumkin. Ayni paytda bo'lajak musiqa o'qituvchilari – bakalavrlarni Buxoro musiqa namoyandalari ijodi misolida tarbiyalab borish ushbu qadriyatlar va boy musiqiy bilim manbalaridan chuqur va atroflicha foydalanish ularning musiqiy bilimlarining boyishi va mahoratlarining ortishida muhim omil hisoblanadi. Professional pedagogik madaniyat mazmuni va tarkibiy qismlariga ko'ra aksiologik, texnik hamda shaxsiy ijodiy komponent kabi uch muhim qismdan iborat bo'lishini e'tirof etadi va ularning har biriga ta'rif beradi [7,25].

Ma'lumki, pedagogik bilish nafaqat haqiqatga bo'lgan munosabat orqali, balki ijtimoiy ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadiga ko'ra ham amalga oshiriladi. Ana shu jihatdan ham inson hayot-faoliyatining yaxlit mazmuni hamda harakat ob'ektlari insoniyat madaniyatini tashkil etuvchi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni idrok etish, anglash va yaratish faolligiga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi. Amaliy va nazariy bilishga bo'lgan yondashuvlar o'rtasidagi aloqa mexanizmi rolini nazariya bilan amaliyot o'rtasida o'ziga xos «ko'pri» sifatida namoyon bo'ladigan aksiologik yohud qadriyatli yondashuv bajaradi. Mazkur yondashuv insonlar ehtiyojlarini qondirish va jamiyatning insonparvarlashtirish vazifalarini hal etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan voqealarni o'rganish imkonini beradi.

Aksiologik yondashuv ma'nosi aksiologik tamoyillar tizimi orqali yoritilishi mumkin. Unga quyidagilar kiradi. – qadriyatlarning xilma-xil madaniyati va etnik xususiyatlarini saqlagan holda yagona insonparvarlik tizimi doirasidagi falsafiy qarashlar teng huquqliligi; – an'ana va ijodning teng ahamiyatlilik, o'tmishdagi ta'limotni o'rganish, foydalanish zarurligini e'tirof etish, bugunni va kelajakni ma'naviy kashf etish imkoniyatlari, an'anaviy hamda yangicha fikrlovchilar o'rtasida o'zaro boyituvchi dialogning zarurligi; – insonlarning ezistensial tengligi, qadriyatlarni asoslash to'g'risida safsatavozlik tortishuvlari o'rniga ijtimoiy-madaniy pragmatizm, messianchilik va loqaydlik o'rniga dialog va harakatchanlik. Aksiologik yondashuv insonparvar pedagogika bilan uzviy bog'liq, chunki unda inson jamiyatning oliy qadriyati va ijtimoiy rivojlanish maqsadi sifatida qaraladi. Shu jihatdan aksiologiya (qadriyatlar tabiati haqidagi falsafiy ta'limot) ta'lim yangi falsafasining hamda hozirgi zamon pedagogikasining ilmiy asosi sifatida qaralishi mumkin. Qadriyatlar, hech bo'lmaganda ularning asoslari insoniyat jamiyati rivojlanishining turli xil bosqichlarida o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Masalan, hayot, sog'lik, muhabbat, ta'lim, mehnat, tinchlik, go'zallik, ijod va shu kabilar insonlarni barcha zamonlarda o'ziga jalb etgan. O'zida insonparvarlik asoslariga ega bo'lgan mazkur qadriyatlar butun insoniyat tarixi davomida davr sinoviga bardosh berib, yashab kelmoqda. Aksiologik tafakkur markazida olamning o'zaro bog'liqligi, o'zaro harakatlanish konsepsiyasi yotadi. U bizning olamimiz – insonning yaxlitlik olami ekanligini tasdiqlaydi, shuning uchun ham qadriyatlarda nafaqat insoniyatni birlashtirish, balki har bir insonni alohida tavsiflash kabi umumiylikni ham ko'rishga o'rganish muhimdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik aksiologiya asosida inson hayoti qadriyatlari, ta'lim va tarbiya, pedagogik faoliyat va umuman ta'lim yotadi. Insoniyat hayoti uchun alohida qadriyatlarni asoslashga intilish pedagogik bilimlar rivojlanishining barcha bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Biroq ular inson bilan jamiyat o'rtasida hosil bo'lgan o'zaro munosabatlar natijasidir.

Professional – pedagogik madaniyatning aksiologik komponenti insoniyat tomonidan yaratilgan pedagogik durdonalarning majmuasi va ta'limning bugun pedagogik jarayoniga hozirgi davr rivoji jalb etilib yaratilgan o'ziga xos holatidir.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik xayotimizdan xam tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi xamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli xissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi xam salmoqli o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda aksiologik yondashuvga qiziqish ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda yangi qadriyatlarni izlash aynan ijtimoiy beqarorlik mavjudligi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. V.P.Zinchenko XX asr umuminsoniy qadriyatlarining eng yuqori darajada qadsizlanish davri deb aytish mumkinligini ta'kidlab o'tadi [7,31]. Ana shu sababli yangi ming yillikda ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirishga faol harakat qilmoqda. Bu jarayon ta'limga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni ta'limda akseologik yondashuvdan foydalanish asosida fanga, ilmiy yondashuvlarga va yoki ilmiy jarayonga qadr tuyg'usi bilan qarash va unga ergashish ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik jarayonda ma'lumi bir muammoga alohida e'tibor qaratish, ma'lum bir bilim yoki ko'nikmani shakllantirishga qadriyatli munosabatni yuzaga keltirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilish ilmi bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy asab sistemasining fiziologiyasi, hissiyot organlari va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi. Talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini oshirishda o'zbek musiqiy merosi va madaniyatiga qadriyatli munosabatni shakllantirish va bu asosida musiqiy mersoni asrashga doir aksiologik faoliyatni yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi. Aksiologik yondashuv ham ilm-fanga, o'zgarishlarga va ta'limga qadriyatli munosabatni namoyon qilishga asoslanadi. Misol uchun, qurol-yarog'larni takomillashtirish, atom-yadro sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy bilish chegarasini kengaytiradi. Biologik va kimyoviy jarayonlarning yangi qirralarini ochish, genlar injeneriyasi, psixoterapiya sohasidagi tadqiqotlar ham bilimlarga bilim qo'shmoqda. Ammo ularning inson hayoti uchun ahamiyati qanday? Ular haqiqiy qadriyatlarga xizmat qiladimi? Bu sohalarda yangilikning yoki foydaning qo'lga kiritilishi natijasida umuminsoniyatga yaxshilik keltiradimi? Ba'zi iqtisodiy foydalarning qadri nihoyatda oz, ular aslida insoniyatga ziyon keltirish emasmi? Bu muammolarga aksiologik yondashuv ularni to'g'ri anglash imkonini beradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, daryolarni o'z o'zanidan boshqa yoqqa burish, tibbiy muolajada qisqa muddat foydali bo'lgan bahzi dori-darmonlardan (doping) foydalanish borasida aksiologik yondashuvga asoslanilmaganligi to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo, afsuski, jahonning bahzi joylarida xaligacha bu sohalarga g'ayriaksiologik qarash mavjudligini, bunda ko'proq iqtisodiy foyda olish va kundalik maqbullikning orqasidan quvish ustuvor bo'layotganligini alohida tahkidlash lozim. Butun jahonda bunday yo'ldan borishning halokatli ekanligi ehtirof etilmoqda va rivojlanishning samarali yo'llari taklif qilinmoqda. Demak, insoniyat foyda bilan birga qadrga ham ko'proq ehtibor berishi lozimligini asta-sekin anglab olmoqda. Lekin bu jarayon nihoyatda sekin amalga oshmayaptimi? Harbiy qurollarning yangi nusxalarini, ularni olib uchadigan raketa va samolyotlarning yangilarini ko'z-ko'z qilishga, ularni sotib, millionlab foyda olayotgan mamlakatlarning yutuqlariga mahliyo bo'layotgan

insoniyat qadrlash va haqiqiy qadrlı mahvolarga intilishda imkoniyatlarnı qo‘ldan boy berayotgani yo‘qmi? Bu muammolar ham ijtimoiy hodisa va jarayonlarga aksiologik yondashishning mohiyati, amaliy ahamiyati va qadrini yanada kengroq izohlab berishni, bu usulni ommaviylashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Bugungi kunda har bir xalq oldida qadriyatlarnı asrab-avaylash, ularga yangicha munosabatni shakllantirish va bu asosida ularning yashovchanligini shakllantirish kerakligi kelib chiqmoqda. Shu ma‘noda musiqiy meros ham xalqning milliy qadriyati sifatida aksiologik munosabatga va bunday yondashuv asosida shakllangan yangicha munosabatga loqiy. Buni amalga oshirishning eng samarali yo‘li ham ta‘limga aksiologik yondashuvni olib kirish, musiqa ta‘limi orqali milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish hisoblanadi. Talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirish orqali o‘quvchılarda milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkin bo‘ladi. O‘quvchi-yoshlarda va talabalarda o‘zbek milliy musiqiy merosiga doir bilimlarini rivojlantirish orqali jamiyatda musiqiy madaniyatni shakllantirish va aksiologik mas‘uliyatni rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Milliy madaniyatimizni yuksaltirishda, jamiyat a‘zolarining dunyoqarashini kengaytirishda, fikrlash qobiliyatini o‘stirishda milliy musiqamizning va an‘anaviy ijrodagi qo‘shiqlarimizning o‘rni beqiyosdir. Milliy musiqa durdonalari va an‘anaviy qo‘shiqlarimiz avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tib, kuylanib, sozlar orqali chalinib kelingan va ularni katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Mumtoz kuy va qo‘shiqlarimiz milliy tafakkurnı ma‘naviy kamol toptirishda asosiy vosita sanalgan. Xalqning og‘ir kunida xam, shodlik, xursandchilik paytlarida xam doimo xamrox bo‘lgan. Shirali kuy, yoqimli ovoz o‘z ta‘sirchanligi bilan inson qalbiga sirli xayajon soladi, uning ruxiyatini tetik qiladi. Ulug‘ mutafakkir shoir Saodiy Sheroziy kuy va qo‘shiqni «Rux ozuqasi» deb atagan ekan. Shuning uchun xam kishi yaxshi bir kuy yoxud qo‘shiq tinglaganida jaxolatdan yiroqlashadi, qalbini yaxshilik tug‘yonlari qamrab oladi. Muxabbat, sadoqat, insoniylik, go‘zallik kabi yuksak darajadagi insoniy xis-tuyg‘ularni qalban xis qiladi.

Pedagogik aksiologiyaga doir adabiyotlarda “qadriyatli ustanovka” tushunchasi ham uchraydi. Garchi ko‘pchilik mualliflar “qadriyatli yo‘nalganlik” va “qadriyatli ustanovka” tushunchalarini sinonim sifatida qo‘llashsa ham, birinchılardan bo‘lib M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko‘rsatgan. Amerikalik olimning fikricha, ustanovkani ma‘lum bir ob‘yekt (konkret yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy)ga yoki vaziyatga nisbatan subyekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e‘tiqodlar majmui deb qarash mumkin [8,513]. Demak, yo‘nalganlik shaxsning jamiyatdagi me‘yorlar bilan inson ehtiyojlari uyg‘unlashuvi aks etsa, qadriyatli ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro‘yobga chiqarishga tayyorligi aks etadi.

Pedagogik aksiologiya ma‘lum bir ob‘yektı qadriyaviy prizma asosida ko‘rish, qadriyatli munosabatni hosil qilish asoslari, unga berilgan bahoning xususiyatlari asosida yondashishga asolanadi. Pedagogik aksiologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olim B.Xodjayevning ta‘kidlashicha, shaxsning o‘z ichki pozisiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog‘liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emosiya, hissiyot) komponentlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi [14,17]. Demak, talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda musiqa ta‘limida aksiologik yondashuvdan foylanish, talaba shaxsiga qadriyali munosabat va bahoni bera oluvchi dunyoqarashni shakllantirish talab etiladi. Shu bilan birga talaba shaxsini qadriyatli faoliyatga tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuvning tadqiqiy maqomi talabalarda milliy musiqaga doir bilimlarnı rivojlantirishning tizimli modelida turli xil vazifalarnı amalga oshirish imkonini beradi: gnostik (akmeologik motivatsiyani rivojlagntirish uchun ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlarnı aniqlash); yo‘naltiruvchi (akmeologik motivatsiyani rivojlagntirishga doir ehtiyojlarnı qondirish uchun zarur qadriyatlarnı tanlab olish); informasion (akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir qadriyatlarning xilma-xilligidan xabardor bo‘lish); baholovchi (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar

o'rtasida o'zaro aloqadorlikni hosil qilish); texnologik (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish yo'llari, metod va vositalarini aniqlashtirish); integrativ (pedagogik jarayonning ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlari va ta'lim oluvchilarning shaxsiy talablarini o'zaro uyg'unlashtirish). Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab etuvchi ijtimoiy va shaxsiy omillarni integratsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi yaxlitlikni ta'minlashni talab etadi; ijtimoiy faollik tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylash uchun muhim va zarur ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda, shu jumladan, san'at olamida sodir bo'layotgan obyektiv o'zgarishlar bilan bog'liqlik musiqa ta'limi talablarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishni talab etadi.

XULOSA

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda aksiologik yondashuv yuqori samaradorlikka ega. Chunki musiqiy merosni asrab-avaylash aksiologik munosabat va baho asosida shakllanadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'zining kasbiy faoliyatida qadr va qimmatlilikni anglasa, unda asrab-avaylash uchun motiv shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmonov, U.K. Bolalarni barkamol etib shakllantirishda musiqa ta'limining o'rni / U.K. Rahmonov // *Oriental Art and Culture*. – 2023. – № 2(4). – B. 857–863.
2. Rahmonov, U.K. The Importance of Folklore Songs in the Development of Musical Performance / U.K. Rahmonov // *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*. – 2023. – 15 March. – P. 284–290.
3. Rahmonov, U.K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy musiqaning o'rni / U.K. Rahmonov // *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi jurnali*. – 2023.
4. Rahmonov, U.K. Ijrochilik san'atining musiqa madaniyatidagi o'rni / U.K. Rahmonov // *Oriental Art and Culture*. – 2023. – № 2(4). – B. 587–593.
5. Rahmonov, U.K. Performer of the Song in the Development of Music: Worldwide Importance / U.K. Rahmonov // *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*. – 2023. – 19 April. – P. 258–273.
6. Soliev, A.R. Vatan tuyg'usi / A.R. Soliev // *So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*. – BECT Publication. – 2022. – № 2. – 12 iyun.
7. Soliev, A.R., Nurmuxammadjonov, A. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi tarixiga bir nazar / A.R. Soliev, A. Nurmuxammadjonov // *Uzluksiz ta'lim*. – 2022. – Maxsus son. – ISSN 2091-5594.
8. Soliev, A.R. Musiqa ta'limida innovatsion g'oyalarni qo'llashda noan'anaviy darsliklarning o'rni / A.R. Soliev // *Ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. – Farg'ona: FDU, 2022. – 5 oktabr.
9. Tursunova, L. The Role of Maqom Art in the Spiritual Upbringing of Youth / L. Tursunova // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. – P. 143.
10. Tursunova, L. Tools Influencing the Formation of the Intellectual Culture of Youth / L. Tursunova // *International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR)*. – P. 154.
11. Tursunova, L. The Impact of the Global Environment and Its Spiritual Factors on the Musical Culture of Youth / L. Tursunova // *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – P. 14.